

2026-yil 9-aprel

Yangi hamkorlik — yangi istiqbollar



"Chirchiq" kimyo-industrial texnoparki hamda Hindistonning "PURFLUX GROUP" korxonasi o'rtasidagi hamkorlik aloqalari shartnoma imzolanishi orqali mustahkamlandi.

"PURFLUX GROUP" — yirik Sogefi Group konserni tarkibiga kiruvchi, avtomobil sanoatida faoliyat yurituvchi xalqaro yetakchi korxonasi hisoblanadi. Korxonada yuqori samaradorlikka ega filtrlash tizimlari hamda avtomobillar uchun boshqa butlovchi qismlarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Yangi loyihani "Jizzax" kimyo-industrial texnoparki hududida joylashtirish rejalashtirilgan.

Mazkur hamkorlik xalqaro sifat standartlarini joriy etishni ta'minlaydi, shuningdek, xalqaro mehnat standartlari asosida hamda kasbiy tayyorgarlik imkoniyatlariga ega bo'lgan yangi ish o'rinlarini

yaratishga xizmat qiladi.

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yangi-hamkorlik-yangi-istiqbollar>